

## TA'LIMNING TARIXIY XUSUSIYATLARI

**Tojiboyeva Muqaddasxon Raxmatjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada pedagogika fanining asosi hisoblangan ta'lim sohasi haqida so'z yuritilgan. Ta'lim tizimining mohiyati hamda mazmuni keng yoritilgan. Shuningdek, ta'lim sohasiga munosib hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlarning ilmiy faoliyati va pedagogik qarashlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ta'limning rivojlanish bosqichlari va tarixiy xususiyatlari batafsil yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, madrasa, somoniylar, anda, aust, a'lo, mudarris, "Quvonch maktabi".*

Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar, avvalo, o'qituvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lish psixologik-pedagogik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallashi, har xil pedagogik vaziyatni zudlik bilan o'rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Mustaqil ishlash iste'dodini shakllantirish, kasbiy layoqat hissini, pedagogik voqea va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish- bularning barchasi ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridir.

Ta'lim mazmuni o'quv jarayonida egallay olish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq bir belgilangan loyihasi hisoblanadi. Ta'lim mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunki u jamiyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Bu ta'lim mazmunining ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish va ilmiy bilimlarning rivojlanish darajasi talablari ta'siri ostida o'zgarib borishini anglatadi. Ta'lim ijtimoiy hodisa sifatida odamlarning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan pragmatik (amaliy) ehtiyojlari negizida shakllangan va u odamlarga hayot faoliyatlarini yo'lga qo'yish uchun zarur. Bilimlarni to'plash va chuqurlashtirish, jamiyat madaniyatining o'sib borishi bilim tomonidan tashkil etiluvchi funksiyalari ko'lamini oshishini ta'minlaydi.

Ta'limning tarixiy xususiyatlari o'ziga xos ahamiyatga ega. O'rta asrda Yaqin va O'rta Sharqda diniy o'quv muassasalari- madrasalar ta'lim va fan markazlari bo'lgan. O'zbekistonlik, rossiyalik va chet el sharqshunos tadqiqotchilari tomonidan

madrasa turidagi o'quv muassasalari aynan Markaziy Osiyoda vujudga kelganligi va shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqalganligi isbotlangan.

Somoniylar davrida Samarqandning o'zida 20 ga yaqin madrasalar mavjud bo'lgan. Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining "Donishnoma" ("Bilimlar kitobi") asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy bilimlar ham o'rgatilganligi, ilmiy tadqiqot olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etilgan.

Abu Ali ibn Sino pedagogika sohasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan. O'z davrida madrasalarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlarni quyidagi tizimlar bo'yicha ajratib chiqqan:

- odob (xulq etikasi);
- astronomiya;
- tibbiyotshunoslik;
- til va uning grammatikasi;
- fiqh (islom huquqshunosligi).

Sharqdagi Uyg'onish davri mutafakkirlari- Muhamad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniylar ham o'zlarining pedagogik qarashlarni keltirib o'tishgan va pedagogika sohasiga munosib hissalarini qo'shishgan. Xususan, al-Xorazmiy birinchilardan bo'lib, induksiya, deduksiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos solgan. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodalagan. Yana bir buyuk mutafakkirimiz Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir. Uning fikricha, ta'lim-so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya 2 yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlantiruvchi so'zlar va majbur etish orqali.

Keyingi buyuk mutafakkirimiz Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti, deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy sifatlarni yaxshilik va yomonlik kabi 2 turga ajratadi. Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarb masaladir. U o'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchilarni zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va shu kabilarga e'tibor qaratish kerakligini uqtirgan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning (1394-1449) Samarqanddagi faoliyati XIV-XV asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta'minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Samarqandning hukmdori bo'lishi bilan birga astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo'lgan. Shuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo'lganligini tarixiy dalillar qayd

etadi. Chunonchi, alloma ko'plab iste'dodli yoshlarni tarbiyalagan. Ulug'bekning sevimli shogirdlaridan biri Ali Qushchi bo'lgan. Ulug'bek odamlar, ayniqsa yoshlarning ilmiy bilimlarni o'rganishlariga katta ahamiyat bergan. Ulug'bek davrida fan va madaniyat yuksalgan. Alloma o'z davlatida ta'lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etgan. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazgan, mudarris (o'qituvchi) larga oylik ish haqi belgilagan. Shogird (talaba) larga stipendiya joriy etgan. Ulug'bek tomonidan barpo etilgan hamdao'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. "Anda" (kichik) – o'qish muddati 2 yil.
2. "Aust" (o'rta) – o'qish muddati 3 yil
3. "A'lo" (oliy) – o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtayi nazaridan aytganda bakalavriat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rta asr Yevropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan. Buyuk iste'dod egasi sifatida alloma o'z davridan bir necha asrlarga o'zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag'ay Ulug'bek quyidagi aksiomani ilgari surgan: "Bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir". Dunyoning rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrlarni to'la tasdiqlaydi.

Yevropaning uyg'onish davri (XIV-XVI asrlar) ma'rifatparvarlari XVIII-XIX asrlarda ham shaxsning barkamol rivojlanishi g'oyalari ilgari surganlar. Misol uchun, Italiya ma'rifatparvari V.De.Feltre (XIV asr) "Quvonch maktabini tashkil etgan. Bu maktabda bolaga erkin jismoniy va aqliy rivojlanish imkoni berilgan. J.J. Russoning erkin tarbiya nazariyasi, I.G. Pestalotsining odamni faol hayotiy faoliyatga jalb etish yo'li bilan uni rivojlantirish haqidagi g'oyalari XX asr pedagogikasining rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim sohasiga har doim alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Mirzo Ulug'bek davrida ta'lim sohasi yuksalgan. Ulug'bek davrida amalga oshirilgan islohotlar pedagogika sohasiga munosib hissa qo'shgan va hozirgi zamon ta'lim sohasi uchun ham asos vazifasini bajarib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. M.Toxtaxodjayeve, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S.Madiyorova, A.Qoldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov. "Pedagogika" ( I qism). Toshkent-2010.
2. B.X.Xodjayeve " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent-2017.
3. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva " Pedagogika nazariyasi". Toshkent-2008.
4. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov " Pedagogika tarixi". Toshkent-1996.

5. Tojiboyeva, M. (2023). ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARINING PEDAGOGIKA SOHASIDA TUTGAN O'RNI. Наука и инновация, 1(6), 24-26.

6. Muqaddasxon, T. (2023). O'ZBEKISTONDA ILM-FAN RIVOJLANISHI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 223-225.

7. Tojiboyev, J. U. O. G. L. (2022). TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTSHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 3(1), 585-594.

8. SAIDKULOVICH, S.B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students Aesthetic Culture in the Process of Globalization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.

9. Umidjon ogli, T. J. (2022, November). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 42-44).

10. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(12), 60-64.

11. Umidjon ogli, T. J. (2022). HARMONY OF AESTHETIC EDUCATION, AESTHETIC CONSCIOUSNESS, AESTHETIC CULTURE AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT. World of Science, 5(6), 12-15.

12. Umidjon o'gli, T. J. (2022). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLAJAK TASVIRIY SANAT OQITUVCHILARINIG ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 480-482.

13. Umidjon ogli, T. J. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING ROLI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1395-1397.

14. Umidjon ogli, T. J. (2023). OILAESTETIK TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY BOGINI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 972-975.